



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100011, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 2a-uy Tel.: (+998) 71 241-01-86; (+998) 55 503-74-00
web-site: www.uzedu.uz, e-mail: uzedu@exat.uz

2025-yil "11"- aprel

03-32-1021-son

Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga

Nusxasi: **Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari
agentligiga**

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2008-yil 4-martdagi "Umumiy o'rta ta'lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" buyrug'i (*Adliya vazirligi tomonidan 2008-yil 20-martda 1778-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan*) hamda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2025-yil 20-fevraldagi 65-son buyrug'i asosida 2024/2025-o'quv yilida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish va o'tkazish belgilangan.

Yuqoridagi normativ hujjatlar ijrosini ta'minlash maqsadida, 9- va 11-sinf bitiruvchilari uchun umumta'lim fanlari bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi imtihonlari jarayonida ilovada keltirilgan ko'rsatmalarga amal qilishingiz so'raladi.

Ilova: elektron shaklda biriktirilgan.

Vazir o'rinbosari



S.Radjabov

Ijrochi: A.Davlatov
Tel.: 555 037 400 (9150)



**9- va 11-sinf o‘quvchilarining yakuniy davlat attestatsiya imtihonlari
uchun belgilangan fanlar va imtihonlarni bo‘lib o‘tish
TARTIBI va SANALARI**

9-sinf o‘quvchilari uchun **majburiy** bo‘lgan fanlar:

Ona tili va adabiyot (<i>ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan sinflar uchun</i>)/ Davlat tili (<i>ta'lim tili o'zbek tili bo'lmagan sinflar uchun</i>)	27.05.2025 (yozma shaklda)
Matematika	30.05.2025 (yozma shaklda)
O‘zbekiston tarixi	03.06.2025 (yozma va og‘zaki shaklda)
Jismoniy tarbiya	01-06.05.2025 (amaliy shaklda)

11-sinf o‘quvchilari uchun **majburiy** bo‘lgan fanlar:

Ona tili va adabiyot (<i>ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan sinflar uchun</i>)/ Davlat tili (<i>ta'lim tili o'zbek tili bo'lmagan sinflar uchun</i>)	28.05.2025 (yozma shaklda)
Matematika (Asosiy)/ Matematika (Chuqurlashtirilgan)*	31.05.2025 (yozma shaklda)
O‘zbekiston tarixi	04.06.2025 (yozma shaklda)

11-sinf o‘quvchilari uchun **tanlov fanlari:**
(**Barcha 11-sinf bitiruvchilari topshirishi majburiy**)

Ona tili va adabiyoti (<i>Qoraqalpoq va adabiyoti/Rus tili va adabiyoti/Qozoq tili va adabiyoti/Qirg‘iz tili va adabiyoti/Tojik tili va adabiyoti/Turkman tili va adabiyoti</i>)	07.06.2025 10.06.2025 (yozma shaklda)
Fizika	
Kimyo	
Biologiya	
Geografiya	
Davlat huquq asoslari	
Chet tili	(yozma va og‘zaki shaklda)

11-sinf bitiruvchilari **3 ta** majburiy va **2 ta** (Matematika (Chuqurlashtirilgan) variantini tanlagan o'quvchilar uchun **1 ta**) tanlov fanlaridan imtihonlar topshiradi..

* Matematika fanidan 11-sinf bitiruvchilari berilgan **2 ta** variantdan birini tanlashlari mumkin. Bunda:

Matematika (Asosiy): Umumta'lim dasturidagi asosiy bilim va ko'nikmalar baholanadi.

Matematika (Chuqurlashtirilgan): Umumta'lim dasturidagi chuqurlashtirilgan bilim va ko'nikmalar baholanadi.

11-sinfda o'quvchining ixtiyoriga ko'ra tanlov fanlar yakuniy davlat attestatsiyasi o'tkazilishidan bir oy oldin uning arizasiga ko'ra tanlanadi;

Berilgan topshiriqlardan yakuniy davlat attestatsiyasi o'tkazilishi belgilangan kundan bir kun oldin, ishchi guruh tomonidan qur'a tashlash yo'li bilan 2 ta variant tuzilib, e'lon qilinadi.

Qo'shimcha eslatma:

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tasarrufidagi ta'lim muassasalari o'zining ta'lim yo'nalishi, o'quv jarayonining xususiyatlari hamda ichki tartib-qoidalaridan kelib chiqib, yakuniy davlat attestatsiyasi imtihon sanalariga tegishli o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari uchun imtihon topshirish tartibi va shakllari belgilangan talablarga muvofiq quyidagicha tashkil etiladi:

1. Ona tili va adabiyot fanidan imtihon o'tkazish tartibi.

9-sinfni tugatgan o'quvchilar ona tili va adabiyot fanidan ta'lim dasturi bo'yicha standartlar asosida belgilangan kompetensiyalarga ega bo'ladilar.

O'quvchilarning olgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun 2024/2025-o'quv yilida 9-sinflarda yakuniy imtihon yozma shaklda o'tkaziladi.

Har bir imtihon biletining savol va topshiriqlari ona tili va adabiyot fani bo'yicha maktablarning 5-,6-,7-,8-,9-sinflari mavzularini qamrab olgan. Shuningdek, tavsiyada bilishga oid savollar, qo'llashga va mulohazaga oid topshiriqlar bo'yicha baholash mezonlari keltirilgan.

O'quvchilarga taklif etilgan baza savollaridan tashkil topgan 2 ta bilet taqdim etiladi. Biletta o'quvchiga 5 tadan (3 ta ona tili, 2 ta adabiyot) savol beriladi. Savollarning 2 tasi (1 ta ona tili, 1 ta adabiyot) bilishga, 2 tasi (1 ta ona tili, 1 ta adabiyot) qo'llashga, 1 tasi (1 ta ona tili va adabiyoti) mulohazaga oid bo'ladi. Yozma savollarga javoblarni yozish uchun maktab tomonidan oldindan tayyorlab (maktab shtampi bosilgan) qo'yilgan A4 formatdagi qog'ozlarga yozadilar. Bilet savollariga tayyorgarlik ko'rish va javob berishi uchun umumiy 120 daqiqa vaqt beriladi.

2. Davlat tili (ta'lim tili o'zbek tili bo'lmagan sinflar uchun)dan imtihon o'tkazish tartibi.

Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 9-sinf o'quvchilariga imtihonda berilgan topshiriqlar bo'yicha 120 daqiqa vaqt beriladi.

O'quvchilarga taklif etilgan baza savollaridan tashkil topgan 2 ta bilet taqdim etiladi. Biletta o'quvchiga bitta matn va 5 ta topshiriq beriladi. Topshiriqlarning

2 tasi bilishga, 2 tasi qo'llashga, 1 tasi mulohazaga oid bo'ladi. Yozma savollarga javoblarni yozish uchun maktab tomonidan oldindan tayyorlab (maktab shtampi bosilgan) qo'yilgan A4 formatdagi qog'ozlarga yozadilar. Bilet savollariga tayyorgarlik ko'rish va javob berishi uchun umumiy 120 daqiqa vaqt beriladi.

3. Matematika fanidan imtihon o'tkazish tartibi.

Imtihon ishining har bir varianti ikki qismdan iborat bo'lib, shakli va murakkablik darajasi turlicha bo'lgan 16 ta topshiriqni o'z ichiga oladi

1-qism 11 ta bir tanlovli test topshiriqdan tashkil topgan. Bunda o'quvchi bitta to'g'ri javobni belgilaydi.

2-qism kengaytirilgan javobli 5 ta topshiriqni o'z ichiga oladi, ularda masalaning yechimini asoslab, chizmalari bilan taqdim etish lozim.

Har bir imtihon variantining savol va topshiriqlari matematika fani bo'yicha umumta'lim maktablarning 5-, 6-, 7-, 8-, 9-sinflari mavzularini, Sonlar va amallar, Algebra va funksiya, Statistika va ehtimollik hamda Geometriya va o'lchash mazmun sohalarini qamrab olgan. Shuningdek, tavsiyada bilishga oid savollar, qo'llashga va mulohazaga oid topshiriqlar bo'yicha baholash mezonlari keltirilgan.

Har bir variantda o'quvchiga 16 tadan (10 ta algebra, 6 ta geometriya) savol beriladi. Savollarning 4 tasi (2 ta algebra, 2 ta geometriya) bilishga, 10 tasi (7 ta algebra, 3 ta geometriya) qo'llashga, 2 tasi (1 ta algebra, 1 ta geometriya) mulohazaga oid bo'ladi. Variant topshiriqlarini bajarish uchun 180 daqiqa vaqt beriladi. Savollarga javoblarni yozish uchun maktab tomonidan oldindan tayyorlab (maktab shtampi bosilgan) qo'yilgan A4 formatdagi qog'ozlarga yozadilar.

4. O'zbekiston tarixi fanidan imtihon o'tkazish tartibi.

O'quvchilarning olgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun 2024/2025-o'quv yilida 9-sinflarda yakuniy imtihon yozma va og'zaki shaklda o'tkaziladi.

Har bir imtihon biletining savol va topshiriqlari O'zbekiston tarixi fani bo'yicha umumta'lim maktablarning 6-7-8-9-sinflar mavzularini qamrab olgan. Shuningdek, tavsiyada bilishga oid savollar, qo'llashga va mulohazaga oid topshiriqlar bo'yicha baholash mezonlari keltirilgan.

O'quvchilarga taklif etilgan baza savollaridan tashkil topgan 2 ta bilet taqdim etiladi. Savollarning 2 tasi bilishga, 2 tasi qo'llashga. Faqat mulohazaga oid savolga javob og'zaki topshiriladi. Og'zaki imtihon qismida 10 variant orasidan o'quvchi bitta mulohazaga oid topshiriq tanlab o'z variantida tushgan savol yuzasidan 10 daqiqa tayyorlanadi va 3 daqiqa gapiradi. Yozma savollarga javoblarni yozish uchun maktab tomonidan oldindan tayyorlab (maktab shtampi bosilgan) qo'yilgan A4 formatdagi qog'ozlarga yozadilar. O'quvchi bilet savollariga javob berishi uchun jami 120 daqiqa vaqt beriladi.

5. Jismoniy tarbiya fanidan imtihon o'tkazish tartibi.

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vaziring 2025-yil 20-fevraldagi "2024/2025-o'quv yilida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida"gi 65-son buyrug'i asosida, o'quvchilarning olgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun 2024/2025 – o'quv yilida 9 – sinflarda yakuniy imtihon

amaliy shaklda o'tkaziladi. 9 – sinfini tugatgan o'quvchilar jismoniy tarbiya fanidan ta'lim dasturi bo'yicha standartlar asosida belgilangan kompetensiyalarga ega bo'ladilar. Har bir imtihon biletining topshiriqlari jismoniy tarbiya fani bo'yicha 8-, 9-sinflar mavzularini qamrab olgan. Shuningdek, tavsiyada topshiriqlar bo'yicha baholash mezonlari keltirilgan.

O'quvchilarga taklif etilgan baza savollaridan tashkil topgan 10 ta bilet (5 ta qiz bolalar uchun, 5 ta o'g'il bolalar uchun) taqdim etiladi. Biletga o'quvchiga 3 tadan (1 ta yengil atletika, 1 ta gimnastika va 1 ta sport o'yinlari) amaliy topshiriq beriladi. Bilet topshiriqlarini amaliy bajarib berish vaqti, biletning o'zida ko'rsatilgan. Berilgan topshiriqlardan yakuniy davlat attestatsiyasi o'tkazilishi belgilangan kundan bir kun oldin, ishchi guruh tomonidan qur'a tashlash yo'li bilan 2 ta variant tuzilib, e'lon qilinadi.

**Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 11-sinf bitiruvchilari uchun
imtihon topshirish tartibi va shakllari belgilangan talablarga muvofiq
quyidagicha tashkil etiladi:**

6. Ona tili va adabiyot fanidan imtihon o'tkazish tartibi.

Imtihon uchun tavsiyaning har bir varianti ikki qismdan iborat bo'lib, shakli va murakkablik darajasi turlicha bo'lgan 20 ta topshiriqni o'z ichiga oladi.

1-qism 15 ta qisqa javobli topshiriqdan tashkil topgan. Bunda javob bitta son, bosh harf bilan yozilgan javob yoki moslashtirilgan jadval ko'rinishida berilishi kerak.

2-qism kengaytirilgan javobli 5 ta topshiriqni o'z ichiga oladi, berilgan topshiriqqa asosli dalillar bilan batafsil hamda ijodiy fikr yuritib, yozma javob beradi.

Har bir imtihon biletining savol va topshiriqlari fan kesimida bo'lib, umumta'lim maktablarning fonetika, orfografiya, leksikologiya, morfologiya, sintaksis, punktuatsiya, uslubiyat, shuningdek, adabiyot hamda adabiyot nazariyasi sohalarini qamrab olgan. Tavsiyada bilish, qo'llash va mulohazaga oid savol va topshiriqlar bo'yicha baholash mezonlari keltirilgan.

O'quvchi bitta biletni tanlab oladi. Biletga o'quvchiga 20 ta (12 ta ona tili, 8 ta adabiyot) savol taqdim etiladi: 5 ta savol (3 ta ona tili, 2 ta adabiyot) bilishga, 13 ta savol (8 ta ona tili, 5 ta adabiyot) qo'llashga va 2 ta savol (1 ta ona tili, 1 ta adabiyot) mulohazaga oid.

Bilet savollariga javob berishi uchun 180 daqiqa vaqt beriladi.

O'quvchilarning yozma ishlari ona tili va adabiyot 100 ball asosida baholanadi:

Har bir topshiriq uchun belgilangan balldan yuqori ball qo'yish mumkin emas. javoblar varaqasini to'ldirish shartlari:

Moslikni aniqlashga doir topshiriqlarda har bir bo'sh katakka faqat bitta harf (bosma harfda) yoki raqam ortiqcha belgilarsiz yozilishi kerak, aks holda, 0 ball qo'yiladi.

Qisqa javobli topshiriqlarning javoblari faqat raqamlarda va topshiriqda so'ralgan tartibda (bosma harflarda) yozilishi shart, aks holda, 0 ball qo'yiladi.

Kengaytirilgan javobli topshiriqlar baholovchi fan ekspertlari tomonidan belgilangan mezonlar asosida tekshiriladi. Har bir topshiriq uchun batafsil baholash

mezonlari berilgan bo'lib, unda har bir ball (noldan maksimal ballgacha) qanday holatda qo'yilishi aniq ko'rsatiladi.

7. Davlat tili (ta'lim tili o'zbek tili bo'lmagan sinflar uchun) dan imtihon o'tkazish tartibi.

Imtihon ishining har bir varianti shakli va murakkablik darajasi turlicha bo'lgan 20 ta savoldan iborat bo'lib, qisqa javobli, ko'p javobli, taqqoslama va bir javobli topshiriqlardan iborat bo'ladi. Shulardan 3 topshiriqqa yozma javob beriladi. Bir javobli savollarga tanlash uchun variant berilmaydi.

Har bir imtihon biletining savol va topshiriqlari o'zbek tili fani bo'yicha umumta'lim maktablarning o'zbek tili fani dasturini qamrab olgan. Shuningdek, tavsiyada bilishga oid savollar, qo'llashga va mulohazaga oid topshiriqlar bo'yicha baholash mezonlari keltirilgan.

Biletida o'quvchiga 17 ta qisqa javobli, ko'p javobli, taqqoslama va bir javobli, 3 ta yozma shaklda topshiriqlar beriladi. Bilet savollariga javob berishi uchun 150 daqiqa vaqt beriladi.

Yozma savollarga javoblarni yozish uchun maktab tomonidan oldindan tayyorlab (maktab shtampi bosilgan) qo'yilgan A4 formatdagi qog'ozlarga yozadilar.

8. Matematika (Asosiy) fanidan imtihon o'tkazish tartibi.

Imtihon ishining har bir varianti ikki qismdan iborat bo'lib, shakli va murakkablik darajasi turlicha bo'lgan 16 ta topshiriqni o'z ichiga oladi.

1-qism 11 ta bir tanlovli test topshiriqdan tashkil topgan. Bunda o'quvchi bitta to'g'ri javobni belgilaydi.

2-qism kengaytirilgan javobli 5 ta topshiriqni o'z ichiga oladi, ularda masalaning yechimini asoslab, lozim bo'lsa chizmalari bilan taqdim etish lozim.

Har bir imtihon variantining savol va topshiriqlari matematika fani bo'yicha umumta'lim maktablarning Algebra va analiz asoslari, Ehtimollar nazariyasi, Geometriya va o'lchash mazmun sohalarini qamrab olgan. Shuningdek, tavsiyada bilishga oid savollar, qo'llashga va mulohazaga oid topshiriqlar bo'yicha baholash mezonlari keltirilgan.

Har bir variantda o'quvchiga 16 tadan (10 ta algebra, 6 ta geometriya) savol beriladi. Savollarning 4 tasi (2 ta algebra, 2 ta geometriya) bilishga, 10 tasi (7 ta algebra, 3 ta geometriya) qo'llashga, 2 tasi (1 ta algebra, 1 ta geometriya) mulohazaga oid bo'ladi. Variant topshiriqlarini bajarish uchun 180 daqiqa vaqt beriladi.

Savollarga javoblarni yozish uchun maktab tomonidan oldindan tayyorlab (maktab shtampi bosilgan) qo'yilgan A4 formatdagi qog'ozlarga yozadilar.

9. Matematika (Chuqurlashtirilgan) fanidan imtihon o'tkazish tartibi.

Imtihon ishining har bir varianti ikki qismdan iborat bo'lib, shakli va murakkablik darajasi turlicha bo'lgan 20 ta topshiriqni o'z ichiga oladi.

1-qism 15 ta qisqa javobli topshiriqdan tashkil topgan. Bunda javob bitta son, birligi bilan yozilgan kattalik yoki moslashtirilgan jadval ko'rinishida berilishi kerak.

2-qism kengaytirilgan javobli 5 ta topshiriqni o'z ichiga oladi, ularda masalaning yechimini asoslab, chizmalari bilan taqdim etish lozim.

Har bir imtihon variantining savol va topshiriqlari matematika fani bo'yicha umumta'lim maktablarning Algebra va analiz asoslari, Ehtimollar nazariyasi va

Statistika mazmun sohalarini qamrab olgan. Shuningdek, tavsiyada bilishga oid savollar, qo'llashga va mulohazaga oid topshiriqlar bo'yicha baholash mezonlari keltirilgan.

Har bir variantda o'quvchiga 20 tadan (12 ta algebra, 8 ta geometriya) savol beriladi. Savollarning 5 tasi (3 ta algebra, 2 ta geometriya) bilishga, 13 tasi (8 ta algebra, 5 ta geometriya) qo'llashga, 2 tasi (1 ta algebra, 1 ta geometriya) mulohazaga oid bo'ladi. Variant topshiriqlarini bajarish uchun 240 daqiqa vaqt beriladi.

Savollarga javoblarni yozish uchun maktab tomonidan oldindan tayyorlab (maktab shtampi bosilgan) qo'yilgan A4 formatdagi qog'ozlarga yozadilar.

10. O'zbekiston tarixi fanidan yozma imtihonlarni o'tkazilish tartibi.

O'quvchilarning olgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun 2024/2025-o'quv yilida 11-sinflarda yakuniy imtihon yozma shaklda o'tkaziladi. Har bir imtihon biletining topshiriqlari O'zbekiston tarixi fani bo'yicha umumta'lim maktablarning 10-,11-sinflari mavzularini qamrab olingan.

Shuningdek, tavsiyada bilishga oid savollar, qo'llashga va mulohazaga oid topshiriqlar bo'yicha baholash mezonlari keltirilgan. O'quvchilarga taklif etilgan baza savollaridan tashkil topgan 2 ta bilet taqdim etiladi. Biletda o'quvchiga 10 tadan savol beriladi. Savollarning 3 tasi bilishga, 6 tasi qo'llashga, 1 tasi mulohazaga doir. Savollarga javoblarni yozish uchun maktab tomonidan oldindan tayyorlab (maktab shtampi bosilgan) qo'yilgan A4 formatdagi qog'ozlarga yozadilar. Bilet savollariga javob berishi uchun umumiy 180 daqiqa vaqt beriladi.

11. Tanlov fanlari bo'yicha imtihonlarni o'tkazilish tartibi.

Bir sinfda o'quvchilarning ixtiyoridan kelib chiqib bir nechta fan tanlanishi mumkin ammo har bir o'quvchi faqat 2 ta (*Matematika (Chuqurlashtirilgan) variantini tanlagan o'quvchilar uchun 1 ta*) fandan imtihonda ishtirok etadi.

Tanlov fanlaridan imtihonlar joriy yilning **7-iyun** 1-fandan, **10-iyun** sanasida 2-fandan o'tkaziladi:

Fizika:

Imtihon ishining har bir varianti ikki qismdan iborat bo'lib, shakli va murakkablik darajasi turlicha bo'lgan 20 ta topshiriqni o'z ichiga oladi.

1-qism 17 ta qisqa javobli topshiriqdan tashkil topgan. Ularning 8 tasi javobni bitta yoki ikkita son ko'rinishida yozishni talab qilsa, 6 tasi bir nechta to'g'ri javobni tanlashni talab qiladigan javoblarni raqamlar ketma-ketligi shaklida yozish talab qiladi, 3 tasi moslikni o'rnatish (muvofiqliklar) topshiriqlaridir.

2-qism kengaytirilgan javobli 3 ta topshiriqni o'z ichiga oladi, ularda masalaning yechimi yoki javobni o'rganilgan hodisalar yoki qonunlarga asoslangan holda tushuntirish tarzida taqdim etish lozim.

Fizikadan imtihon variant topshiriqlarini bajarish uchun 3 soat (jami 180 daqiqa) vaqt beriladi.

Savollarga javoblarni yozish uchun maktab tomonidan oldindan tayyorlab (maktab shtampi bosilgan) qo'yilgan A4 formatdagi qog'ozlarga yozadilar.

Kimyo:

Imtihon ishining har bir varianti ikki qismdan iborat bo'lib, shakli va murakkablik darajasi turlicha bo'lgan 20 ta topshiriqni o'z ichiga oladi.

1-qism 17 ta qisqa javobli topshiriqdan tashkil topgan. Bunda javob kimyoviy formula, birligi bilan yozilgan kattalik yoki moslashtirilgan jadval ko'rinishida berilishi kerak.

2-qism kengaytirilgan javobli 3 ta topshiriqni o'z ichiga oladi, ularda masalaning yechimini asoslab, yechimlari bilan taqdim etish lozim.

Har bir imtihon variantining savol va topshiriqlari kimyo fani bo'yicha umumta'lim maktablarning umumiy kimyo, anorganik, organik kimyo va kimyoviy analiz mazmun sohalarini qamrab olgan. Shuningdek, tavsiyada bilishga oid savollar, qo'llashga va mulohazaga oid topshiriqlar bo'yicha baholash mezonlari keltirilgan.

Variantda o'quvchiga 20 ta (10 ta umumiy kimyo, 3 ta anorganik kimyo, 6 ta organik kimyo va 1 ta kimyoviy analiz) savol beriladi. Savollarning 6 tasi (3 ta umumiy kimyo, 2 ta organik kimyo, 1 ta anorganik kimyo) bilishga, 11 tasi (5 ta umumiy kimyo, 4 ta organik kimyo, 2 ta anorganik kimyo) qo'llashga, 3 tasi (2 ta umumiy kimyo, 1 ta kimyoviy analiz) mulohazaga oid bo'ladi. Variant topshiriqlarini bajarishi uchun 240 daqiqa vaqt beriladi.

Savollarga javoblarni yozish uchun maktab tomonidan oldindan tayyorlab (maktab shtampi bosilgan) qo'yilgan A4 formatdagi qog'ozlarga yozadilar.

Biologiya:

Imtihon ishining har bir varianti ikki qismdan iborat bo'lib, shakli va murakkablik darajasi turlicha bo'lgan 20 ta topshiriqni o'z ichiga oladi.

1-qism 17 ta qisqa javobli topshiriqdan tashkil topgan.

Topshiriqlar qisqa javob yoziladigan, moslashtirish va ketma-ketlikni to'g'ri aniqlash, bir nechta javobli, fikrlar to'g'ri yoki noto'g'ri (T/N) ni aniqlash shaklida bo'lib, bunda javob namunaga oid bitta yoki bir necha son birligi, bosma harf bilan yozilgan bo'lishi so'raladi.

2-qism kengaytirilgan javobli 3 ta topshiriqni o'z ichiga oladi, ularni bajarishda berilgan savol yoki biologik masalaning yechimini asoslab, o'z fikrini batafsil yozishi kerak.

Har bir imtihon variantining savol va topshiriqlari biologiya fani bo'yicha umumiy o'rta ta'limning 5 – 11 — sinflar mavzularini qamrab olgan. Shuningdek, tavsiyada bilishga oid savollar, qo'llashga va mulohazaga oid topshiriqlar bo'yicha baholash mezonlari keltirilgan.

Har bir variantda o'quvchiga 20 tadan topshiriq savollari beriladi. Bu topshiriqdan 5 ta bilish, 14 ta qo'llash va 1 ta mulohaza ko'nikmalarini baholashga oid tuzilgan.

Yakuniy nazorat imtihoni test sinovida qamrab olingan biologiya fanining mazmun sohalarini:

- Tabiat asoslari va uning fan va texnikadagi roli. Tiriklikning xilma-xilligi
- Hujayra biologiyasi: hujayra tarkibi, tuzilishi va funksiyasi
- Organizmlar biologiyasi va xilma-xilligi
- Genetika va evolyutsiya
- Hayotning ekosistema va biosfera darajasi umumiy qonuniyatlari

Variant topshiriqlarini bajarish uchun 180 daqiqa vaqt beriladi.

Geografiya:

Imtihon ishining har bir varianti shakli va murakkablik darajasi turlicha bo'lgan 20 ta topshiriqni o'z ichiga oladi.

1-qism 17 ta qisqa javobli topshiriqdan tashkil topgan. Bunda javob bitta yoki bir son birligi, bosma harf bilan yozilgan so'z yoki moslashtirilgan jadval ko'rinishida berilishi kerak.

2-qism kengaytirilgan javobli 3 ta topshiriqni o'z ichiga oladi, ularda berilgan geografik topshiriq (masala)ning yechimini asoslab, taqdim etish lozim.

Har bir imtihon biletining savol va topshiriqlari geografiya fani bo'yicha umumiy o'rta ta'limning 7–10-sinflar mavzularini qamrab olgan. Shuningdek, tavsiyada bilishga oid savollar, qo'llashga va mulohazaga oid topshiriqlar bo'yicha baholash mezonlari keltirilgan.

Biletida o'quvchiga 20 tadan savol beriladi. Savollarning 5 tasi bilish, 13 tasi qo'llash, 2 tasi mulohaza ko'nikmalarini baholashga oid. Topshiriqlarga javob berishi uchun 120 daqiqa vaqt beriladi.

Savollarga javoblarni yozish uchun maktab tomonidan oldindan tayyorlab (maktab shtampi bosilgan) qo'yilgan A4 formatdagi qog'ozlarga yozadilar. Bilet savollariga javob berishi uchun umumiy 120 daqiqa vaqt beriladi.

Davlat huquq asoslari:

Imtihon ishining har bir varianti ikki qismdan iborat bo'lib, 20 ta topshiriqni o'z ichiga oladi.

1-qism 17 ta qisqa javobli topshiriqdan tashkil topgan. Bunda javob bitta yoki bir necha son birligi, bosma harf, bosma harf bilan yozilgan so'z yoki moslashtirilgan jadval ko'rinishida berilishi kerak.

2-qism kengaytirilgan javobli 3 ta topshiriqni o'z ichiga oladi. Ularda berilgan savol yoki huquqiy masalaning yechimini asoslash, huquqiy munosabat ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari yozilishi kerak.

Har bir imtihon variantining savol va topshiriqlari davlat va huquq asoslari fani bo'yicha umumiy o'rta ta'limning 8-11-sinflar mavzularini qamrab olgan.

Variant 20 ta topshiriqdan iborat bo'lib, ularning 5 tasi bilish, 14 tasi qo'llash, 1 tasi mulohaza ko'nikmalarini baholaydi. Variant savollariga javob berishi uchun 180 daqiqa vaqt beriladi.

Savollarga javoblarni yozish uchun

maktab tomonidan oldindan tayyorlab (maktab shtampi bosilgan) qo'yilgan A4 formatdagi qog'ozlarga yozadilar.

Chet tili fanidan imtihon o'tkazilish tartibi:

Umumta'lim maktablarning 11-sinflari uchun chet tili fanidan yakuniy nazorat imtihoni tinglab tushunish, o'qib tushunish, yozish, nutq ko'nikmasini aniqlash yuzasidan o'tkaziladi.

Imtihon gibridda shaklda tashkil etiladi. Birinchi qism uchun umumiy 90 daqiqa vaqt ajratiladi. Bunda o'quvchilarga imtihonni yozma qismi uchun oldindan tanlagan 2 ta variant taklif etiladi. Og'zaki imtihon qismida 10 ta variant orasidan o'quvchi bitta topshiriq tanlab o'z variantida tushgan savol yuzasidan 10 daqiqa tayyorlanadi va 4 daqiqa gapiradi.